

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING
AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH**

Gulnoza Qodirova

Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi,

*“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim
metodikalari” kafedrasi kafedrasi o‘qituvchisi.*

E-mail: gulnozaqodirova27@gmail.com

Tel: +998905322283

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Bolalar axloqiy tarbiyasining erta yoshdayoq boshlanishi, uning jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiyaviy jarayonda ota-onalar, pedagoglar va atrof-muhitning ta’siri, axloqiy sifatlar – halollik, mehribonlik, hurmat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni rivojlantirish usullari ko‘rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy tarbiya metodlari, didaktik o‘yinlar, ertaklar va namuna orqali ta’sir ko‘rsatish uslublariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, axloqiy tarbiya, axloqiy sifatlar, bolalar tarbiyasi, halollik, mehribonlik, vatanparvarlik, ijtimoiy-psixologik rivojlanish, pedagogik metodlar, tarbiyaviy jarayon.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования нравственных качеств у детей дошкольного возраста. Анализируется начало нравственного воспитания детей в раннем возрасте, его роль и значение в усвоении социально-нравственных ценностей в обществе. Также рассматривалось влияние родителей, учителей и окружающей среды на образовательный процесс, а также методы развития таких нравственных качеств, как честность, доброта, уважение и патриотизм. В статье также рассматриваются современные методы обучения, дидактические игры, сказки, методы воздействия примером.

Ключевые слова: Дошкольный возраст, нравственное воспитание, нравственные качества, воспитание ребенка, честность, доброта, патриотизм, социально-психологическое развитие, педагогические методы, образовательный процесс.

Abstract: The article considers the issues of formation of moral qualities in preschool children. The beginning of moral education of children at an early age, its role and importance in the assimilation of social and moral values in society are analyzed. The influence of parents, teachers and the environment on the educational process, as well as methods of development of such moral qualities as honesty, kindness, respect and patriotism are also considered. The article also considers

modern teaching methods, didactic games, fairy tales, methods of influence by example.

Keywords: Preschool age, moral education, moral qualities, child rearing, honesty, kindness, patriotism, social and psychological development, pedagogical methods, educational process.

Kirish: Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko‘ra o‘ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o‘sib, ulg‘ayishida mактабгача bo‘lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o‘sish, rivojlanish va o‘zgarishlar ichida yashaydilar. Mashhur pedagoglar mактабгача tarbiya yoshi bolaning ma’naviy qiyofasining shakllanishida benihoya mas’uliyatli davr ekanligini qayta – qayta qayd etgan edilar. Ko‘plab pedagogik va psixologik tekshirishlar aynan shu yoshda maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya berilsa shaxsning asosiy ma’naviy fazilatlari vujudga kelishini ta’kidlaydi. 6-7 yoshlarida bolada xulq-atvorning barqaror formalari tevarak atrofdagi odamlarga o‘zlashtirib olgan axloq norma va qoidalariga muvofiq ravishda munosabatda bo‘lishga intilish hissi tarbiyalanishi mumkin.

Mashhur pedagoglar mактабгача tarbiya yoshi bolaning ma’naviy qiyofasining shakllanishida benihoya mas’uliyatli davr ekanligini qayta – qayta qayd etgan edilar. Ko‘plab pedagogik va psixologik tekshirishlar aynan shu yoshda maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya berilsa, shaxsning asosiy ma’naviy fazilatlari vujudga kelishini ta’kidlaydi.

Mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarning psicho-fiziologik xususiyatlari axloqiy tarbiya uchun qulay imkoniyat vujudga keltiradi. Mактабгача tarbiya yoshidagi bolalar o‘ta iqtidorliligi va oson o‘zlashtira olishlari bilan ajralib turadilar, bunga sabab ular nerv sistemasining plastikligi, uning atrof-muhitda bo‘layotgan ta’sirga aktiv javob berish qobiliyatligidir. Bola idrok qiladigan juda ko‘p narsalar uning his tuyg‘usi, diqqat e’tibori, taqlid qilishi va fikrlash predmeti bo‘lib qoladi. Lekin hayot tajribasi yetarli emasligi, o‘ta emotsiyonallik mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarda ayniqsa, kichik mакtab yoshidagi bolalarda idrok qilgan narsalarini yetarli baholay bilmasliklari sababli ko‘pincha yaxshini yomondan ajrata bilmaslik, to‘g‘ri yo‘lni aniqlab unga rioya qila bilmaslik xollari uchraydi. Shu sababli birinchidan bolaga yaqin kishilar unga namuna bo‘lishlari ikkinchidan ular bolaning axloqiy yo‘nalgan faoliyatini tashkil qilishlari, muntazam ravishda unga axloqiy harakatlarni mashq qildirishlari muhimdir.

Bolaning ma’naviy axloqining birinchi tajribasi kattalar bilan aloqa qilish jarayonida vujudga keladi. Muomala qilishga bo‘lgan extiyoj muhim ijtimoiy ehtiyoj bo‘lib, katta kishi bolaning bu extiyojini qondiruvchi manbaa xisoblanadi albatta, muomalaning mazmuni pedagogik jihatdan muhim bo‘lishi lozim, shundagina u bolaga axloqiy ta’sir ko‘rsatadi.

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti – harakatini tartibga solish funktsiyasini bajaradi.

Axloq bizning ongimizga ta’sir qilib yaxshilik, adolat vaadolatsizlik, umuman ijobiy va salbiy xatti - harakatlarni belgilab beradi.

Axloq normalari inson xatti – harakatini boshqarib turadi. Inson jamiyatda yashar ekan u ma’lum huquqlarga amal qiladi. Ana shu huquq normalariga zid xatti - harakat qilish axloqsizlik xatti - harakati deb ataladi. Shuni e’tiborga olish kerakki, huquqiy normalar majburiy bo‘lib, axloqiy normalar bo‘lsa ixtiyoriydir.

Axloqiy tarbiya insonlarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirish bilan bir qatorda, salbiy sifatlardan saqlanishga undaydi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni sifatida quyidagilar qabul qilingan:

1. Jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;
2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
3. Atrofidagi kishilarga axloqiy munosabatni tarbiyalash;
4. Shaxsning o‘z – o‘ziga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Axloqiy tarbiyada quyidagi jihatlarga e’tiborni qaratish lozim:

1. Axloqiy tarbiyani o‘qitish jarayoni bilan qo‘shib olib borish.

“Yaxshi o‘qita bilgan o‘qituvchi yaxshi tarbiyalaydi ham” (nemis pedagogi A.V.Disterverg).

2. O‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlik faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ya’ni ahil, inoq jamoa tashkil qilish.

3. Tarbiyaviy ishlarni ma’lum reja asosida olib borish.

4. Ijobiy emotsiunal sharoit yaratish, ya’ni, bayramlarni nishonlash.

5. Quronun – qoidaga rioya qilishga o‘rgatish.

6. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, ma’ruza, rag‘batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish.

7. Ijtimoiy axloqni shakllantirishda mashq, o‘rnak usullaridan foydalanish.

8. Muloqot soatlari savyasini oshirish.

10. Turli badiiy – adabiy kechalar, tadbirlar, bellashuvlar, olimpiadalar o‘tkazish.

11. Sharq qadriyatlari va milliy an’analar aks etgan asarlarni muntazam ravishda mutolaa qilib, munozaralar o‘tkazib turish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada milliy o‘yinlar, bayram va marosimlarning o‘rni.

Har bir taraqqiy etgan, madaniyatlari xalqning o‘z tili, urf-odati, adabiyoti, an’anaviy moddiy va ma’naviy boyliklari bo‘ladi. O‘zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniy xalqlardan biri sifatida mana shunday xazinaga ega. Bu bilan biz haqli ravishda faxrlansak arziydi. Buning uchun o‘sha qadimiy madaniyatini, urf-odatini bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazishimiz insoniy

burchimizdir, ularning talabalarning axloqiy ma’naviy tarbiyasida alohida o‘rnini mavjud.

Tayanch dasturning maqsadi:

Maktabgacha yoshdagagi bolalarning ijtimoiy rivojlanish - bunda bola ijtimoiy muhit va atrofidagilar bilan hamkorlik qiladi;

hissiy rivojlanish - bunda bolada o‘zini va o‘z hissiyotlarini anglash rivojlanadi.

Ijtimoiy rivojlanish holatida bola:

tanish va notanish kishilarni farqlashi;

boshqa bolalar va katta yoshdagilar bilan muloqot qilish malakalarini qo‘llay olishi lozim.

Hissiy rivojlanish bosqichida bola:

“men” kontseptsiyasini anglashi;

o‘zgalar va o‘z hislarini anglashi lozim.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy jixatdan

tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan kattalar o‘rtasida insonparvarlik munosabatlarini (ijtimoiy turmushning elementar qoidalarini bajarish, do‘stona munosabat, mehribonlik, yaqin kishilarga g‘amxo‘rlik av xokazolar),

- bolalar jamoasida o‘zaro munosabatni shakllantirish,

- vatanga muhabbat turli millat vakillariga xurmat va xayrihoxlikni tarbiyalash,

- mehnat qilishga qat’iy istak va mehnat malakasida namoyon bo‘ladigan mehnatga muhabbatni tarbiyalash masalalari ayniqsa muhimdir.

Bu vazifalarni o‘zaro bog‘liq ravishda amalga oshira borib, tarbiyachilar bolaning xissiyotiga ta’sir etadi, axloqiy ko‘nikmalarni tarbiyalaydi, ayrim axloqiy xususiyatlari va ijtimoiy hayotdagi bolalar uchun zarur bo‘lgan voqealari haqidagi tasavvurini shakllantirishda va ularga nisbatan ijobji fikrlar uyg‘otishda zarur asos hisoblanadi.

Bolalarda axloqiy fazilatlarni, ijobjiy xulq atvor va odatlarni tarbiyalab borish muhim axamiyat kasb etadi, chunki bolaning ma’naviy fazilatlarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi voqealari haqidagi tasavvurini shakllantirishda va ularga nisbatan ijobji fikrlar uyg‘otishda zarur asos hisoblanadi.

Xulosa qilganda pedagog bolalarda eng oddiy odatlarni tarbiyalash jarayonida kichkintoylar belgilangan vazifalarni ishtiyooq bilan bajarishga erishishi, yani bolaning tashqi ijobjiy ko‘rinishlari ichki mohiyatini anglashiga, bolaning vazifalarni qoidalar asosida bajarishiga erishishi lozimligini his etadilar. Shu tariqa bolada dastlabki hayrixohlik holatlari vujudga kela boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.A.Karimova–Bola psixologiyasi, Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
– Bolalarning psixologik rivojlanishi, xulq-atvori va axloqiy sifatlarining shakllanishi haqida.
2. A.Ravshanov–Pedagogik mahorat asoslari, Toshkent: Fan, 2020.
– Tarbiyaviy jarayonlar, pedagogik yondashuvlar va axloqiy tarbiya uslublari bayon qilingan.
3. M.Xolmatova–Maktabgacha ta’lim pedagogikasi, Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
– Maktabgacha yoshdagি bolalarni tarbiyalashda qo‘llaniladigan axloqiy tarbiya usullari tahlil etilgan.
4. D.A.Komilova–Maktabgacha ta’lim psixologiyasi, Toshkent: Fan va texnologiya,
2018.
– Bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, axloqiy qadriyatlarining shakllanishi.
5. G‘.I.Nizomova– Maktabgacha yoshdagи bolalarni axloqiy tarbiyalash asoslari, Toshkent: Ta’lim, 2022.